



# KAPITALBANK

AKTSIYADORLIK TIJORAT BANKI  
“KAPITALBANK”

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot,  
2017 yil 31 dekabrda tugagan,  
va mustaqil auditorlarning xulosalari



"Grant Thornton" MChJ AJ  
O'zbekiston Respublikasi  
100128, Toshkent  
Abay ko'chasi 1 A  
Tel: +998(71) 244-47-45/46  
Faks: +998(71) 244-47-43

AO "Grant Thornton" LLC  
1A, Abay Str.,  
Tashkent, 100128  
Republic of Uzbekistan  
Tel: +998(71) 244-47-45/46  
Fax: +998(71) 244-47-43  
W: [www.gti.org](http://www.gti.org)  
E: [audit@uzgt.uz](mailto:audit@uzgt.uz)

## **Mustaqil auditorlar xulosasi**

### **ATB "Kapitalbank" Aktsiyadorlariga va Boshqaruviga**

#### *Fikr*

Biz Aktsiyadorlik tijorat banki "Kapitalbank"ning (keyingi o'rirlarda – "Bank") hamda sho'ba kompaniyalarining (keyingi o'rirlarda – "Guru") 2017 yil 31 dekabr holatiga moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotni, foyda va zarar, boshqa yalpi daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotni, kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotni, ko'rsatilgan sanada tugagan yil uchun pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobotni o'z ichiga olgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarining, hamda hisob siyosatining asosiy yo'riqnomalarining qisqacha sharhini o'z ichiga olgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga izohlarning auditini amalga oshirdik.

Bizning fikrimizga ko'ra, ilova qilingan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar Guruhning 2017 yil 31 dekabr holatiga bo'lgan konsolidatsiyalangan moliyaviy holatining barcha muhim jihatlarini, hamda ko'rsatilgan sanada tugagan yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy natijalarini va pul mablag'larining harakatini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) ko'ra haqqoniy ravishda yoritib beradi.

#### *Fikrni bildirish uchun asoslar*

Biz Xalqaro audit standartlari bo'yicha auditni amalga oshirdik. Bizning ushbu standartlarga binoan bo'lgan majburiyatlarimiz xulosamizning "Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarning auditি borasida auditor majburiyatları" bobida ta'riflangan. Biz Buxgalterlar uchun xalqaro etika standartlari bo'yicha Kengashning Professional buxgalterlar etikasi kodeksiga ( BXESK kodeksi) va O'zbekiston Respublikasida bizning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar auditiga qo'llanilishi mumkin bo'lgan etika talablariga asosan Guruha nisbatan mustaqilmiz, tomonimizdan BXESK kodeksiga asosan boshqa ahloqiy majburiyatlar bajarildi.



Shunga ishonamizki, biz olgan auditorlik isbotlari fikrimizni bildirish uchun asos bo'lib xizmat qilishga yetarli va to'g'ridir.

#### *Auditning muhim masalalari*

Auditning muhim masalalari – bu bizning professional mulohazalarimizga ko'ra joriy davr moliyaviy hisobotlarining tomonimizdan audit qilinishi uchun muhim ahamiyat kasb etgan masalalardir. Bu masalalar moliyaviy hisobotlarning auditi kontekstida umumiy olganda va ushbu hisobotlar bo'yicha fikrimizning shakllanishida ko'rib chiqildi, va biz ushbu masalalar bo'yicha alohida fikrlar bildirmaymiz.

Auditning muhim masalasi	Auditning muhim masalasi bo'yicha qanday auditorlik amaliyotlari bajarildi
<p><i>Kreditlar va bo'naklarning qadrsizlanishi uchun zahira</i></p> <p>Biz ushbu masalaga mijozlar uchun kreditlar va bo'naklarning muhim ahamiyat kasb etishi, hamda qadrsizlanish uchun tegishli zahirani hisoblashda muhim mulohazalardan va baholashlardan foydalanishni taqozo etishi tufayli alohida ahamiyat qaratdik.</p> <p>Zahira boshqaruv tomonidan hisobot davrida mijozlar kreditlari va bo'naklari bo'yicha ko'rilgan zararning to'g'ri baholanishini ifodalaydi.</p> <p>Muhim kreditlar va bo'naklar bo'yicha alohida zahiralar individual ravishda hisoblanadi. Bunday zahiralarni hisoblash uchun qadrsizlanish hodisasi qachon sodir bo'lganligini aniqlash maqsadida mulohazalarni tadbiq etish, keyin esa tegishli kredit bilan bog'liq kelajakdagi kutilgan pul mablag'larining oqimini baholash talab etiladi.</p> <p>Boshqa barcha o'xshash kreditlar va bo'naklar uchun portfel asosida kollektiv zahiralar shakllantiriladi. Bunday zahiralar kredit sharoitlarining kredit portfeliga ta'sirini baholashga yordam beruvchi statistik modellar yordamida hisoblanadi. Ushbu modellarning tuzilishi va kiritiladigan ma'lumotlar boshqaruv mulohazalariga bog'liq.</p> <p>Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarga kiritilgan 3-izohda "Hisobotni taqdim etish tamoyillari", 4-izohda "Muhim baholashlar va professional mulohazalar" va 8-izohda "Mijozlar uchun kreditlar" mijozlar kreditlari va bo'naklarning qadrsizlanishi uchun zahira to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan.</p>	<p>Biz zahirani hisoblashda foydalanilgan asosiy metodikalarning va tegishli modellarining MHXS talablariga javob berishini baholadik.</p> <p>Biz qadrsizlangan qoldiqlarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida qadrsizlanish ma'lumotlariga nisbatan, hamda zahirani hisoblanishi ustidagi nazorat vositalarining operatsion samaradorligini va tuzilishini baholadik va sinovdan o'tkazdik (tanlov asosida).</p> <p>Biz boshqaruv tomonidan potentsial ravishda qadrsizlangan deb belgilanmagan kreditlarni va bo'naklarni sinovdan o'tkazdik (tanlov asosida), hamda ushbu amaliyot tegishli tarzda amalga oshirilganligi haqida o'z mulohazalarimizni shakllantirdik.</p> <p>Biz individual zahiralar hisoblab chiqilgan kreditlarni sinovdan o'tkazdik (tanlov asosida). Biz qadrsizlanish hodisasi o'z vaqtida aniqlanib yoki aniqlanmaganligini tekshirdik, diskontlangan pul mablag'ları oqimining hisob-kitobini amalga oshirdik, boshqaruv tomonidan foydalanilgan kelajadagi pul mablag'ları oqimining manbalarini tekshirdik, taxminlarni tanqidiy ravishda baholadik va baholash ko'rsatkichlarini tashqi isbotlar bilan, agar bunday imkoniyat mavjud bo'lsa, solishtirdik.</p> <p>Biz kollektiv zahiralash modellarining amal qilishini, hamda ularda foydalanilgan ma'lumotlarni va taxminlarni sinovdan o'tkazdik (tanlov asosida). Bizning ishimiz o'z bilimlarimiz va boshqa amaliyotlar va aniq tajribalar asosida asosiy taxminlarni solishtirish, hamda qayta hisoblash va boshqa turli tahliliy jarayonlar yordamida modellarni sinovdan o'tkazishni o'z ichiga oldi.</p>



Auditning muhim masalasi	Auditning muhim masalasi bo'yicha qanday auditorlik amaliyotlari bajarildi
<p><i>Chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha kursning farqi</i></p> <p>Biz ushbu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi UP-5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan valyuta islohoti o'tkazilganligi sababli alohida ahamiyat berdik, asosan mamlakat iqtisodiyoti milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan devalvatsiyasini qabul qildi. 1 AQSh dollari 8100 o'zbek so'mini tashkil etdi. Milliy valyutaning chet el valyutasiga erkin konvertatsiya qilinishi borasida chora-tadbirlar ko'rildi va chet el valyutasidan foydalanishda chegaralovchi choralar soddalashstirildi.</p> <p>Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning 20-izohida "Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha harajatlar ayrilganidan keyingi sof daromad"</p>	<p>Biz valyuta turlari bo'yicha Guruh aktivlarini va majburiyatlarini bo'lib chiqdik.</p> <p>Biz chet el valyutasida ko'rsatilgan daromad va harajatlarning hisoblanishi va kursning qo'llanilishi tegishli ravishda amalga oshirilib oshirilmaganligi borasida sinov o'tkazdik (tanlov asosida).</p> <p>Hisoblash davrida daromadlar va harajatlar o'zbek so'mida aks ettirilgan.</p> <p>Devalvatsiyani qabul qilishdan oldin 1 AQSh dollari 4210,35 o'zbek so'mini tashkil etgan.</p> <p>Valyuta kurslari orasidagi farq moliyaviy holatga sezilarli darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi.</p>

#### *Boshqa ma'lumotlar*

2016 yil 31 dekabrda tugagan yil uchun Guruhning Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarining auditini boshqa auditor tomonidan o'tkazilgan bo'lib, ushbu auditor tomonidan 2017 yil 28 apreldagi moliyaviy hisobot to'g'risida modifikatsiyalanmagan fikr bildirdi.

#### *Korporativ boshqaruv va konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar uchun javob beruvchi boshqaruv va korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar majburiyatları*

Boshqaruv, ko'rsatilgan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarining MHXS talablariga asosan tayyorlanishi va haqqoniy tarzda taqdim etilishi uchun va insofsiz amallar yoki hatolar oqibatida jiddiy darajada buzib ko'rsatishlarni o'z ichiga olmagan konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun boshqaruv tomonidan zarur deb topilgan ichki nazorat tizimi uchun mas'uliyatga ega.

Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda boshqaruv Guruhning uzlusiz ravishda o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatini baholash, faoliyatning uzlusizligi bilan bog'liq tegishli vaziyatlarda ma'lumotlarni ochib berish, faoliyat uzlusizligi to'g'risidagi taxminlar asosida hisobot tayyorlash uchun mas'uldir. Boshqaruv Guruhni tugatish, faoliyatini to'xtatish niyatida bo'lgan holatlar yoki bunday amaliyotlarni amalga oshirish uchun haqiqiy muqobilliklari mavjud bo'limgan holatlar bundan mustasno.

Boshqaruv va korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslar Guruhning moliyaviy hisobotlarini tayyorlash uchun mas'uldirlar.

*Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarning auditi borasida auditor majburiyatlari*

Bizning maqsadimiz moliyaviy hisobot insofsiz amallar yoki hatolar oqibatida jiddiy darajada buzib ko'rsatishlarni o'z ichiga olmaganligi haqida ba'mani ishonch hosil qilish va fikrimizdan tarkib topgan auditorlik xulosasini taqdim etishdir. Ba'mani ishonch bu yuqori darajadagi ishonchlilikni ifodalaydi, lekin jiddiy darajada buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lgan hollarda Xalqaro audit standartlariga binoan o'tkazilgan audit har doim ham ularni aniqlashi borasida kafolat bermaydi. Buzib ko'rsatishlar insofsiz amallar yoki hatolar oqibatida yuzaga kelib, alohida yoki jamlangan holda ushbu moliyaviy hisobotga ko'ra foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlariga ta'sir etishini asoslangan holda taxmin etish mumkin bo'lsa, unda ular jiddiy darajadagi buzib ko'rsatishlar deb hisoblanadi.

Xalqaro audit standartlariga binoan o'tkaziladigan audit doirasida biz professional mulohazalarni tadbiq etamiz va butun audit jarayoni mobaynida professional skeptitsizmni saqlab qolamiz. Bundan tashqari quyidagilarni ijro qilamiz:

- moliyaviy hisobotlarda insofsiz amallar yoki hatolar oqibatida jiddiy darajada buzib ko'rsatish riskini aniqlaymiz va baholaymiz; ushbu risklarga javoban auditorlik amaliyotlarni ishlab chiqamiz va o'tkazamiz; fikrimizni bildirish uchun asos bo'lib xizmat qilishga yetarli va to'g'ri bo'lgan auditorlik isbotlarini qo'lga kiritamiz. Insofsiz amallar oqibatida sodir bo'lgan buzib ko'rsatishlarni aniqlay olmaslik riski, hato oqibatida sodir bo'lgan buzib ko'rsatishlarni aniqlay olmaslik riskidan balandroqdir, chunki insofsiz amallar til biriktirish, firibgarlik, qasdan o'tkazib yuborish, buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etish yoki ichki nazorat tizimini aylanib o'tishga qaratilgan amallardan tashkil topishi mumkin;
- tegishli vaziyatlarning auditorlik amaliyotlarini ishlab chiqish maqsadida audit uchun muhim ahamiyat kasb etgan ichki nazorat tizimini tushunish, lekin Guruhning ichki nazorat tizimining samaradorligi haqida o'z fikrimizni bildirish maqsadida emas;
- qo'llanilayotgan hisob siyosatining xarakterini, hamda buxgalteriya baholashlarini va boshqaruva tomonidan tayyorlangan ma'lumotlarni tegishli tarzda ochib berilishini baholash;
- boshqaruva tomonidan faoliyat uzluksizligi to'g'risida qo'llanilgan taxminlarning qonuniyligi haqida xulosa chiqarish, olingan ushbu auditorlik isbotlari asosida esa, natijada Guruhning o'z faoliyatini uzluksiz ravishda davom ettirish qobiliyatida muhim shubxalar vujudga keladigan vaziyatlar yoki shartlar tufayli jiddiy noaniqlikning mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarish. Agar biz jiddiy noaniqlikning mavjudligi to'g'risidagi xulosaga kelsak, biz o'z auditorlik xulosamizda moliyaviy hisobotlarda tegishli ma'lumotlarni ochib berishga e'tibor qaratishimiz lozim yoki bunday ma'lumotlarni ochib berish kerakli tarzda bo'lmasa, o'z fikrimizni modifikatsiyalashimiz zarur. Bizning xulosalarimiz auditorlik xulosasi taqdim etilgan sanagacha olingan auditorlik isbotlariga asoslangan holda chiqarilgan. Biroq kelajakdagisi vaziyatlar yoki shartlar Guruhning o'z faoliyatini uzluksiz ravishda davom ettirish qobiliyatining yo'qolishiga olib kelishi mumkin;
- taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarni umumiyligi jihatdan, uning tuzilishini va, ma'lumotlarni ochib berishni ichiga olgan holda tarkibini, hamda moliyaviy hisobot asosida yotgan operatsiyalar va vaziyatlarning haqqoniyligi ta'minlanganligini baholaymiz;
- konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar to'g'risida fikr bildirish uchun Guruhning ichki faoliyati yoki tashkilotning moliyaviy ma'lumotlari bilan bog'liq yetarli va kerakli auditorlik isbotlarini qo'lga kiritamiz. Biz guruhning audit qilinishining boshqarilishiga, nazoratiga va o'tkazilishiga javob beramiz. Biz o'z auditorlik fikrimiz uchun to'liq ravishda mas'ul dirmiz.

Biz boshqaruva va korporativ boshqaruva uchun mas'ul shaxslar bilan axborot hamkorligini amalga oshiramiz, ularga boshqa ma'lumotlardan tashqari, rejalashtirilgan audit hajmi va muddati, hamda audit



yakunlariga binoan jiddiy tanbehlar, jumladan audit mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklari to'g'risida ma'lumot beramiz.

Shu bilan birgalikda boshqaruv va korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarga mustaqillik borasidagi barcha ahloqiy talablarga rioya qilganimiz va asoslangan holda auditorning mustaqilligiga ta'sir etuvchi barcha o'zaro munosabatlar va boshqa masalalar haqida, kerakli vaziyatlarda esa tegishli ehtiyot choralarining ko'rilganligi to'g'risida ushbu shaxslarga ariza taqdim etamiz.

Boshqaruv va korporativ boshqaruv uchun mas'ul shaxslarga taqdim etgan ma'lumotlarimiz ichida, joriy davrning auditini amalga oshirish uchun eng muhim bo'lgan masalalarni belgilaymiz, ushbu masalalar muhim audit masalalaridir. Biz bu masalalarni auditorlik xulosamizda yoritib beramiz, ushbu masalalarning ommaviy tarzda oshib berilishi qonun yoki meyyoriy hujjatga asosan ta'qiqlangan bo'lsa yoki kamdan-kam holatlarda biz xulosamizda masalaning xabar berilmasligi to'g'risidagi xulosaga kelgan paytimizda, agar bunday ma'lumotning xabar berilishi natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar, uning xabar berilishidan ommaviy jihatdan yuzaga keladigan foydadan oshib ketgan taqdirda bunday masalalar yoritilmaydi.

Shoodil Nosirov  
Loyha bo'yicha hamkor (imzo)

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan 2017 yil 24 iyulda berilgan 13/1-sonli banklarning audit tekshiruvlarini o'tkazish uchun auditorning malakaviy sertifikati.

"Grant Thornton" MChJ AJ  
Toshkent shahri, O'zbekiston

ATB "Kapitalbank"

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, 2017 yil 31 dekabrda tugagan (ming UZSda)

### Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	Izoh	2017 yil 31 dekabr	2016 yil 31 dekabr
<b>Aktivlar:</b>			
Pul mablag'lari va ekvivalentlari	6	930 835 594	474 734 942
Kredit tashkilotlaridagi mablag'lar	7	204 261 814	453 596 028
Mijozlar uchun kreditlar	8,25	1 612 868 781	1 318 017 449
Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar	9	4 203 509	9 155 605
Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar		2 696 753	4 088 656
Assotsiatsiya kompaniyalariga investitsiyalar		-	3 323 577
Asosiy vositalar	10	458 203 449	151 780 050
Nomoddiy aktivlar	10	1 944 857	1 571 904
Kechiktirilgan soliq aktivlari	22	8 899 572	1 487 240
Boshqa aktivlar	11	445 015 893	229 970 557
<b>Jami aktivlar</b>		<b>3 668 930 222</b>	<b>2 647 726 008</b>
<b>Majburiyatlar:</b>			
Kredit tashkilotlari mablag'lari	12	258 880 240	137 917 814
Mijozlar mablag'lari	13,25	3 051 461 993	2 222 674 899
Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar	14	2 070 575	5 345 781
Moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlar		-	19 097 055
Boshqa qarz mablag'lari	16	15 363 435	15 363 435
Boshqa majburiyatlar	15	<u>10 413 436</u>	<u>11 277 993</u>
<b>Jami majburiyatlar</b>		<b>3 338 189 679</b>	<b>2 411 676 977</b>
<b>Kapital</b>			
Aktsiyadorlik kapitali	16	80 331 797	80 331 797
Qo'shimcha kapital	16	350 000	350 000
Asosiy vositalarni qayta baholash fondi	10,17	112 795 731	37 400 020
Taqsimlanmagan foyda		137 263 015	117 967 214
<b>Jami kapital</b>		<u>330 740 543</u>	<u>236 049 031</u>
<b>Jami majburiyatlar va kapital</b>		<b>3 668 930 222</b>	<b>2 647 726 008</b>

Guruh boshqaruvi nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

(Imzo)

Olimov K.A.

Bank Boshqaruv Raisi

2018 yil 30 aprel

(Muhr)

(Imzo)

Skuybida E.E.

Bosh Hisobchi

ATB "Kapitalbank"

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, 2017 yil 31 dekabrda tugagan (ming UZSda)

## Foyda va Zarar, boshqa yalpi daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	Izoh	Bir yil uchun, 2017 yil 31 dekabrda tugagan	Bir yil uchun, 2016 yil 31 dekabrda tugagan
Foizli daromadlar	18,25	249 272 340	172 267 083
Foizli harajatlar	18,25	(104 070 470)	(83 417 415)
<b>Sof foizli daromad</b>		<b>145 201 870</b>	<b>88 849 668</b>
Foizlar hisoblanadigan aktivlarning qadrsizlanishi uchun shakllantirilgan zahiralar	8	(25 649 786)	(11 176 835)
<b>Foizlar hisoblanadigan aktivlarning qadrsizlanishi uchun zahiralarning shakllantirishidan keyin sof foizli daromad</b>		119 552 084	77 672 833
Komission daromadlar	19,25	164 641 613	118 742 716
Komission harajatlar	19,25	(20 261 657)	(20 044 039)
Chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo'yicha harajatlar ushlab qolninganidan so'ng sof daromadlar	20	(52 313 546)	16 265 338
Boshqa aktivlarning qadrsizlanishi uchun zahiralar	11	(7 488 780)	-
Kreditlarning dastlabki e'tirofidan zarar		(9 432 133)	-
Zahiralarni qayta tiklashdan boshqa daromadlar		-	958 839
Boshqa daromadlar		18 699 972	9 030 392
Boshqa harajatlar		(9 047)	(10 570)
<b>Foizsiz daromadlar/(harajatlar)</b>		93 836 422	124 942 676
Xodimlar uchun harajatlar	21,25	(72 784 550)	(59 925 912)
Amortizatsiya	10	(18 100 963)	(14 994 478)
Boshqa operatsion harajatlar	21	(84 375 597)	(65 096 636)
<b>Foizsiz harajatlar</b>		(175 261 110)	(140 017 026)
<b>Daromad solig'i uchun harajatlardan oldin foyda</b>		<b>38 127 396</b>	<b>62 598 483</b>
Daromad solig'i harajatlari	22	(18 831 595)	(24 007 294)
<b>Davr uchun sof foyda</b>		19 295 801	38 591 189
Boshqa yalpi daromad			
Binolarni qayta baholash	17	75 395 711	14 156 745
Yalpi daromad komponentlariga tegishli daromad solig'i		-	-
<b>Soliq solinganidan so'ng boshqa yalpi daromad</b>		<b>75 395 711</b>	<b>14 156 745</b>
<b>Jami davr uchun yalpi daromad</b>		<b>94 691 512</b>	<b>52 747 934</b>

Guruh boshqaruvi nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

(Imzo)

(Muhr)

(Imzo)

Olimov K.A.

Skuybida E.E.

Bank Boshqaruvi Raisi

Bosh Hisobchi

2018 yil 30 aprel

11-69 betlardagi izohlar ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning ajralmas qismi deb hisoblanadi.

ATB "Kapitalbank"

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, 2017 yil 31 dekabrdagi tugagan (ming UZSda)

### Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	Aktsiyadorlik kapitali	Qo'shimcha kapital	Asosiy vositalarni qayta baholash fondi	Taqsimlanmagan foyda	Jami kapital
2016 yil 1 yanvar holatiga qoldiq	80 331 797	350 000	50 782 450	51 641 287	183 105 534
Davr uchun sof foyda	-	-	-	38 591 190	38 591 190
Boshqa yalpi daromad	-	-	14 156 745	-	14 156 745
Binolar amortizatsiyasini ko'chirish	-	-	(2 760 070)	2 760 070	-
Asosiy vositalarni qayta baholash fondini ko'chirish	-	-	(24 779 105)	24 779 105	-
Sho'ba korxonalarining chiqib ketishi	-	-	-	195 562	195 562
2016 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq	80 331 797	350 000	37 400 020	117 967 214	236 049 031
Davr uchun sof foyda	-	-	-	19 295 801	19 295 801
Boshqa yalpi daromad	-	-	75 395 711	-	75 395 711
2017 yil 31 dekabr holatiga ko'ra qoldiq	80 331 797	350 000	112 795 731	137 263 015	330 740 543

Guruh boshqaruvi nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

(Imzo)

Olimov K.A.

Bank Boshqaruv Raisi

2018 yil 30 aprel

(Muhr)

(Imzo)

Skuybida E.E.

Bosh Hisobchi

ATB "Kapitalbank"

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, 2017 yil 31 dekabrdagi tugagan (ming UZSda)

## Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot

	Bir yil uchun, 2017 yil 31 dekabrdagi tugagan	Bir yil uchun, 2016 yil 31 dekabrdagi tugagan
<b>Operatsion faoliyatdan pul mablag'larining harakati</b>		
Soliq solinishidan oldingi daromad	38 127 369	62 598 483
Korrektirovkalar:		
Kreditlarning qadrsizlanishi uchun zahira	25 649 786	11 176 835
Zahiralarning qadrsizlanishi va shakllantirilishi natijasida boshqa (daromadlar)/harajatlar	16 920 913	(964 884)
Amortizatsiya	18 100 963	14 994 479
Asosiy vositalarni sotishdan olingan daromad	(574 344)	(599 857)
Chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha valyuta moddalarini qayta baholash bo'yicha daromad/(zarar)	(131 602 463)	46 099 347
Svop operatsiyalaridan realizatsiya qilinmagan foyda	(283 491 577)	(37 188 309)
Boshqa qarz mablag'lar	-	943 385
Boshqa hisoblashlar	2 712 206	9 546 586
<b>Operatsion aktivlar va majburiyatlardagi o'zgarishlarga o'zingiz faoliyatdan olingan pul mablag'larining harakati</b>	<b>(314 157 120)</b>	<b>(106 606 065)</b>
<i>Operatsion aktivlarning sof (ko'payishi)/kamayishi</i>		
Kredit tashkilotlaridagi mablag'lar	249 334 214	(123 027 601)
Mijozlar uchun kreditlar	(294 851 332)	(522 896 547)
Boshqa aktivlar	(215 045 336)	(35 049 865)
<i>Operatsion majburiyatlarning sof ko'payishi/(kamayishi)</i>		
Kredit tashkilotlarining mablag'lari	120 962 426	29 914 003
Mijozlar mablag'ları	828 787 094	591 675 029
Boshqa majburiyatlar	(864 557)	66336
Soliq undirilishigacha operatsion faoliyatdan tushgan pul mablag'lari oqimi	374 165 389	47 287 420
To'langan daromad solig'i	(28 968 439)	(27 783 564)
<b>Operatsion faoliyatdan sof pul mablag'lari harakati</b>	<b>345 196 950</b>	<b>19 503 856</b>
<i>Investitsion faoliyatdan pul mablag'lari harakati</i>		
Sotish uchun mavjud bo'lgan aktivlarni sotib olish	(4 952 096)	(9 155 605)
Sho'ba korxonalarining chiqib ketishidan tushgan tushumlar, chiqib ketgan mablag'lar hisobga olinmaganida	-	52 911 678
Asosiy vositalarni sotib olish	(205 969 090)	(42 606 697)
Nomoddiy aktivlarni sotib olish	(997 157)	(1 046 856)
Asosiy vositalarni sotishdan tushgan tushumlar	2 677 476	49 017 463
<b>Investitsion faoliyatdan sof pul mablag'lari harakati</b>	<b>254 240 867</b>	<b>49 119 983</b>

ATB "Kapitalbank"

Bir yil uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot, 2017 yil 31 dekabrda tugagan (ming UZSda)

**Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi  
konsolidatsiyalangan hisobot (davomi)**

	Bir yil uchun, 2017 yil 31 dekabrda tugagan	Bir yil uchun, 2016 yil 31 dekabrda tugagan
<i>Moliyaviy faoliyatdan tushgan pul mablag'lari</i>		
Imtiyozli aktsiyalarni chiqarishdan tushgan tushumlar	-	14 420 050
Qarz qimmatli qog'ozlarni qoplash	(3 275 206)	(2 971 479)
<b>Moliyaviy faoliyatdan tushgan sof pul mablag'lari harakati</b>	<b>(3 275 206)</b>	<b>11 448 571</b>
Ayriboshlash kurslari o'zgarishining pul mablag'lari va ekvivalentlariga ta'siri	368 419 775	34 531 173
<b>Pul mablag'lari va ekvivalentlarining sof o'zgarishi</b>	<b>456 100 652</b>	<b>114 603 583</b>
Hisobot davri boshiga pul mablag'lari va ekvivalentlari	474 734 942	360 131 359
<b>Hisobot davri boshiga pul mablag'lari va ekvivalentlari</b>	<b>930 835 594</b>	<b>474 734 942</b>

Guruh boshqaruvi nomidan tasdiqlangan va imzolangan:

(Imzo)

(Muhr)

(Imzo)

Olimov K.A.

Skuybida E.E.

Bank Boshqaruv Raisi

Bosh Hisobchi

2018 yil 30 aprel

11-69 betlardagi izohlar ushbu konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotning ajralmas qismi deb hisoblanadi.